

BUXORO XONLIGI TASHKIL TOPISHIDA UBAYDULLAXONNING SIYOSIY FAOLIYATI

Axmadov Davron Azamat o'g'li

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon hayoti shuningdek uning hukmronligi davrida yuz bergan siyosiy jarayonlar manba va adabiyotlat tahlili asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mahmud Sulton. Xoja Ubaydulloh Ahror Vali, Ubaydullaxon, **Buxoro xonligi**, Samarqand, Hofiz Tanish Buxoriy, Shayboniixon, tasavvuf, Ahmad Yassaviy, Qul Ubaydiy

Аннотация: В данной статье на основе анализа источников и литературы раскрывается жизнь Убайдуллы-хана, сына Махмуда Султана, а также политические процессы, происходившие во время его правления.

Ключевые слова: Махмуд Султан. Ходжа Убайдулла Ахрор Вали, Убайдулла Хан, Бухарское ханство, Самарканд, Хафиз Таниш Бухари, Шайбани Хан, Суфизм, Ахмед Яссави, Кул Убайди.

Abstract: This article, based on an analysis of sources and literature, reveals the life of Ubaidullah Khan, the son of Mahmud Sultan, as well as the political processes that took place during his reign.

Key words: Mahmud Sultan. Khoja Ubaydullah Akhror Vali, Ubaydullah Khan, Bukhara Khanate, Samarkand, Hafiz Tanish Bukhari, Shaybani Khan, Sufism, Ahmed Yassawi, Kul Ubaydi.

Buxoro hokimi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon 1486-yili Xorazmga qarshi egallash uchun olib borilgan harbiy yurishlar vaqtida Vazir shahri (Ko'hna Urganchdan 60 km. masofada bo'lgan) yaqinidagi Tirsak mavzeyida tug'ilgan. Aziz-avliyolar, xususan, naqshbandiya shayxlariga muhabbat va e'tiqodi baland bo'lgan

Mahmud Sulton Turkiston mulkining o'sha davrdagi shayx ul-mashoyixi, mashhur diniy va siyosiy arbob Xoja Ubaydulloh Ahror Valiydan o'z o'g'liga nom qo'yishni iltimos qiladi. "O'z nomlarini berishlari ul zotning zo'r marhamatlaridan bo'ldiki, shuning uchun ham uning bebaho asarlari va yaxshi nomlarining oqibati olamda boqiydir" [1], - deb yozadi Hofiz Tanish Buxoriy.

Ubaydullaxon yoshligidan alohida fazilatlari va favqulodda qobiliyatlari bilan ajralib turgan, u Amir Abdulla Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr, Xoja Mullo Isfahoniy, mavlona Mahmud Azizon, Mavlono Yormuhammad Qori kabi o'z davrining yetuk allomalari qo'lida tahsilini kamolotga yetkazadi. Chunonchi, zamona mudarrislari sarvari Xoja Mavlono Isfahoniydan hadis ilmini, faqihlar peshvosi Mavlono Mahmud Azizondan fiqhni, mashhur hofizi Qur'on Yormuhammad Qoridan qiroatni o'rganadi[2].

Ubaydullaxon tasavvuf bobidagi saboqni dastlab otasining piri Mavlono Muhammad Qoridan olgan. Keyin uning xalfasi Mahdumi A'zamga shogird tushgan. Ubaydullaxonning, xususan, Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan Amir Abdulla Yamaniyga e'tiqodi baland bo'lib, unga irodat nisbati bor edi. Mir Arab uning ma'naviy piri bo'libgina qolmay, davlat ishlari va harbiy masalalarda ham unga yaqindan maslahat berib turgan.

Ubaydullaxonning nafaqat mohir sarkarda va yetuk davlat arbobi, balki inson sifatida shakllanishi va kamol topishida ham amakisi Muhammad Shayboniyxonning ta'siri va xizmatlari katta. Chunki 15 yoshidan boshlab o'z davrining yaxshi ta'lim-tarbiya olgan, diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor yetuk va fozil kishisi, iste'dodli shoir, musavvir, musiqachi va hofizi Qur'on bo'lgan Shayboniyxonning qanotiga kirib, to 1510-yili Marv yonida Shoh Ismoil Safaviydan yengilib, shahid bo'lganiga qadar uning shayboniylar davlatini qurish uchun olib borgan barcha urushlarida ishtirok etadi, katta tajriba va obro'ga ega bo'lib, xondan keyingi ikkinchi shaxsga aylanadi[3].

Hasanxoja Nisoriyning yozishicha "Askar muhorobalarda (jang) oliy lutfu karamlar egasi bo'lish amakisi xizmatida turib, g'am-tashvish dog'ini o'zining obdor o'tkir tig'i sayqali bilan uning dil oynasidan yuvib ketkazgan. Fath-u inoyatlar

eshiklarini ochuvchi Hazrat (Olloh) qaerda davlat qopusini (eshik) Shayboniyxon yuziga ochgan bo'lsa, uning kalitini Ubaydullaxonning fath oyinali (zafar) qilichisiz tasavvur etish mumkin emas va qaerda davlat-u mulk oshig'i (Shayboniyxon) to'y hashamini hozirlasa, suyukligining yuzi (fath etilajak shahar) Ubaydullaxonning zafar keltiruvchi tig'i oyinasisiz jamol ko'rsatmas edi"[4].

1504-yili otasi Qunduzda vafot etgach, 18 yashar Ubaydullaxon uning o'rniga Buxoro hokimi qilib tayinlanadi. 1510-yildan (24 yoshidan) butun shayboniylar saltanatining noibi, 1533-1540-yillarda ega bosh xon sifatida faoliyat ko'rsatadi.

“1505-1506-yillardan boshlab Shayboniy xonlarga tegishli barcha ishlarni amalda Ubaydullaxon boshqarganidan, u bosh xonlikni da'vo qilganida ham, vijdonan aytganda, hyech kim qarshilik qilmagan bo'lar edi, ammo u avlodidan-avlodga o'tib kelayotgan an'analarga amal qilib, bu unvonni xonadonning eng yoshi ulug'iga ravo ko'rib keldi, - deb yozadi Mirzo Muhammad Haydar, - to Abusaidxon vafot etib, Ubaydullaxondan yoshi ulug' kishi qolmaguncha bu an'ana davom etdi. Shundan keyingina u xonlik taxtiga o'tirdi. Hamda adolat va ezgulik nasimi bilan dunyoga musaffalik baxsh etdi"[5].

Ko'chkinchixon va uning o'g'li Abusaidning vafotidan keyin Ubaydullaxon bosh xon bo'lib, Samarqandni poytaxt qilishi kerak edi. lekin Ko'chkinchixon avlodlaridan Abdulatifxon Ubaydullaxonni Samarqandga kiritmaydi. Ubaydullaxon poytaxtni Buxoroga ko'chirishga majbur bo'ladi va xutba ham uning nomiga shu yerda o'qiladi.

Ubaydullaxon oliy taxtga o'tirgunga qadar shayboniylar na ichki, na tashqi siyosatda e'tiborga molik tadbirlarni amalga oshirolmaganlar. G'ayratli va uddaburon Ubaydullaxon mamlakat ichkarisida tartib o'rnatishda, ayniqsa, Xurosonda Movarounnahrning ilgarigi mavqeyini mustahkamlashda ko'p tadbirlarni amalga oshiradi. Shu tariqa Shayboniyxondan so'ng o'tgan shijoatli va harbiy hukmdorlikdan biri bo'lgan Ubaydullaxon hokim, noib va xon bo'lib jami 36 yil hukmronlik qildi. Uning poytaxti bo'lgan Buxoro olim-u fuzalolarning to'planadigan joyi bo'lib, Ubaydullaxon zamonida shunday darajaga yetdiki, Mirzo Husayn Boyqaro davridagi Hirotni yodga solardi[6].

Ubaydullaxonning mamlakatdorligini ta'riflab, Hofiz Tanish Buxoriy: “Ubaydullaxon bin Mahmud Sulton bin Shoh Budog‘ Sulton bin Abulxayrxon adolat shevasida dinparvar va siyosat yo‘lida g‘oyatda mashhur bir podshoh edi. Uning davri va xalofati zamonida Movarounnahr, xususan, Buxoro viloyati gullab-yashnadi”[7].

Ubaydullaxon dindor podshoh bo‘lgan – bir umr islom asoslarini mustahkamlash, Muhammad alayhissalom sunnatini ustivor etish uchun jang olib borgan. U Movarounnahrni shia mazhabidagi Shoh Ismoil boshliq Eron safaviylari – qizilboshlar istibdodidan saqlab qolgan. Uning Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi bu buyuk xizmati nafaqat diniy, balki ozodlik nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir[8].

Ubaydullaxon tasavvufga ham beqiyos muhabbati va so‘fiylarga cheksiz e’tiqodi bilan ajralib turganligi uchun Faxriy Harotiy uni “darvesh kiyimidagi shoh” deb ta’riflagan bo‘lsa, Mahdumi A’zam u haqda “darveshlarning muxlisi va e’tiqodmandi, ammo bu faqir dil-u jonning mahbubi”[9], degan edi. Fitratning yozishicha: “Bu odam o‘zining hukumat ishlarig‘a qaramasdan, shayxliq ham qilar edi, bu ishni o‘zining siyosati uchun lozim bilar edi. Ubaydullaxonning tariqat nisbati Avliyo Qoraxon o’tli bir shayx vositasi bilan Hakim Sulaymon otag‘a boradir. Yolg‘ur bu qadar bilan qolmag‘an, o‘zi uchun muridlar olg‘an. Uning yassaviylar bilan juda qat’iy bog‘langaniga yana bir dalil Yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadyor No‘g‘ay otag‘a o‘z qizini berganidir”[10].

Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy ruhidan madad so‘rab, janglarda g‘alaba qozongani, taxtga o‘tirgani, unga ergashib hikmatlar aytgani ma’lum. Ayni paytda, uning naqshbandiyaga e’tiqodi ham undan kam bo‘lmagan. Boshqacha aytganda, u o‘sha davrda Movarounnahrda keng tarqalgan ikki tariqat – yassaviyaga ham, naqshbandiyaga ham kirgan. Uning ijodida ham har ikkala tariqat ta’siri, g‘oyalari ifodasini ko‘ramiz. “Qul Ubaydiy” degan taxallusning o‘zi ham shaklan Ahmad Yassaviy uslubi va tasavvufiy xokisorlik (o‘z – nafsi – g‘ururini yenga olgan Ollohning quli)ni anglatadi. Shu bilan birga, Ubaydullaxonning naqshbandiyaga mansubligi din va dunyo ishlari bilan barobar mashg‘ul bo‘lishiga imkon bergan[11].

Soʻfiylik taʼlimotiga mayl, darveshlik Ubaydullaxonning qonida bor edi: uning qarindosh-urugʻlari boʻlmish shayboniy sultonlarning barchasi aziz-avliyolarga alohida muhabbat va eʼtiqodi bilan ajralib turganligi tarixiy va adabiy manbalardan maʼlum. Otasi – Buxoro hokimi Mahmud Sulton esa naqshbandiya tariqatining oʻsha davrdagi yirik namoyondasi Xoja Ahror Valiyni chuqur hurmat-ehtirom qilibgina qolmay, uning muridi Mavlono Muhammad Qozini Buxoroga taklif etib, unga qoʻl bergan. Asli andijonlik boʻlgan bu ulugʻ zot Zahiriddin Muhammad Bobur xonadonini ham piri-muridi edi. Ubaydullaxon ham uning suhbat va vaʼzlaridan bahramand boʻlgan.

Hukmdorning oʻz irodasini pir ixtiyoriga topshirishi darveshlar orasida tariqatga qiziqishni kuchaytirib yuborgan. U tasavvuf rivojlanib, davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan, tariqat shayxlari hokimiyatni boshqarish ishlariga faol aralasha boshlagan bir davrda yashab oʻtdi.

Naqshbandiya tariqati oʻz maktabiga qariyb jami hukmdorlarni jalb qilgan. Masalan, Mahdumi A'zam davrini olsak, hukmdorlar Ubaydullaxon, Jonibek Sulton, Isfandiyor Sulton, Iskandar Sultonlar Mahdumi A'zamning muridlari edilar. Yoki Xoja Ahror davrini olsak, Sulton Abusaid, Bobur Mirzolar Xoja Ahrorning muxlislari edilar[12].

Qabul nazari Xoja Ahror Valiydan hosil boʻlgan Ubaydullaxonning oʻzi ham otasining piri Mavlono Muhammad Qozining shogirdi edi. Shuningdek, Mahdumi A'zamga murid tushib, umrining oxirigacha u bilan yaqin aloqada boʻlgan. Mahdumi A'zam ham Ubaydullaxonga hurmat bilan qarab, uning sheʼrlari tadqiqiga bagʻishlab 3 ta risola yozgan[13].

Ubaydiyning bir kuni peshindan keyin badiha tarzida aytgan arab tilidagi soʻfiyona ruboiysi sharhiga bagʻishlab arab tili va falsafa bilimdoni Mavlono Anzoriddin Ibrohim namozshomga qadar bir risola tasnif etib, uning har bir misrasi bobida olti yuz ellik maʼno aytgan ekan[14].

Ubaydullaxon jang qilish, mamlakatni siyosiy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlash, sunniy mazhabini ustuvor etish, tasavvufni rivojlantirish bilan kifoyalanib qolmay, ilm,

madaniyat va adabiyotga ham katta e'tibor bergan. “Adolat shevasida yagona, jang sohasida nihoyatda farzona” bo‘lgan, Xudovandi Karim “hech qanday fazilat va kamolotdan benasib etmagan”, “dilovar va bahodir”[15] bo‘lgan.

Ubaydullaxon saroyida ham ko‘plab shoirlar to‘plangan edi. Zayniddin Vosifiyning yozishicha: “Ul Hazratning odati shu ediki, har kuni bir she'rni o‘rtaga tashlab, unga tatabu' va javob yozishga shoirlarni undardilar. Derdilarki, ta'bni bekorga o‘tkazmanglan, uni mashg‘ul qilmoq lozim. Sustlik tab'ning bo‘shashiga sabab bo‘ladi va zehnni o‘tmaslashtiradi”[16].

Ubaydullaxon serqirra iste'dod sohibi edi: adabiyot, san'at, ilohiyot, xattotlik kabi bir necha sohalarida o‘z iqtidorini sinab ko‘rib, ularning barchasida hayratomuz natijalarni qo‘lga kiritgan. U, xususan, Ubaydiy, Qul Ubaydiy, Ubaydulloh taxalluslari ostida o‘zbek, fors-tojik va arab tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan. O‘zbek adabiyoti tarixida 3 tilda qalam tebratgan, she'r yozgan, devon tuzgan shoir kam[17].

Ubaydullaxon davrida Buxoro xonligi iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksaldi. Mir Arab madrasasi, Mirak Said G‘iyos bog‘i, Qo‘hak daryosiga qurilgan Mehtar Qosim ko‘prigi eng muhtasham obidalardir[18]. Ubaydullaxonning ko‘rsatmasi bilan Sabron va Yassi shaharlari obodonlashtirildi. Ubaydullaxon o‘z nomiga Sabronda qurdirgan katta madrasa qo‘sh minorali bo‘lib, minoralar doimo tebranib turishi haqida XVI asrda o‘tgan shoir Zayniddin Vosifiy o‘ta muhim ma'lumot keltirgan[19].

Turkiya sultonlarining boshqa hukumatlar bilan olib borgan yozishmalari to‘plamida 1514-1515-yili Ubaydullaxonning elchisi amir Sa'id Muhammad Turkiyada bo‘lgani va Sulton Salim (1512-1520) bilan muzokaralar olib borgani haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, Sulton Salimning elchisi Muhammadbek o‘sha yili Movarounnahrda kelgan. Sulton Salim o‘z maktubida Ubaydullaxonni “qizilboshlarga” qarshi kurashga chaqiradi[21].

Ubaydullaxonning hayoti va ijodi hamisha ilm ahlining e'tiborini o‘ziga tortib kelgan. XVI asrda va undan keyin yozilgan tarixiy asarlarda hayoti, faoliyati va ijodiga yuksak baho berilganligi Ubaydullaxonning o‘z davri siyosiy, ijtimoiy, madaniy va adabiy hayotida katta rol o‘ynagan serqirra shaxs, xalqning buyuk farzandlaridan biri

bo'lganligidan dalolat beradi. Bu asarlar haqida mazkur tadqiqot ishining tarixshunoslik bobida birmuncha yoritildi. Shuningdek, XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlarida yashab o'tgan ozarbayjonlik Sodiq Kitobdor "Tazkirayi majma' ul-xavos"ida Ubaydiy xususida ham ma'lumot berib, uning bir forsiy ruboiysini keltiradi[22].

Xulosa tariqasida Muhammad Haydar mirzoning ushbu ta'rifini keltiramiz: "keyingi yuz yil davomida hukronlik qilgan podshohlar ichida Ubaydullaxonga o'xshaganini hech kim ko'rmagan, hech kim eshitmagan. U xudojo'y musulmon, har narsadan nafsini tiya oladigan odam bo'lgan. Mamlakat, saltanat, din, ra'iyat, lashkarga tegishli barcha ishlarni shariat hukmlari asosida bajarar edi"[23].

Ubaydullaxon qisqa, lekin mazmunli umr kechirdi. U 1540 yili 54 yoshida olamdan o'tadi va Buxoro yaqinidagi Bahouddin Naqshband majmuasida joylashgan Daxman shohon (Shohlar daxmasi)dagi shayboniylar xilxonasiga dafn etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. 1-жилд. 59-бет.
2. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. 23-24-бетлар.
3. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-Билод. 132-133-бетлар.
4. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. 21-22-бетлар.
5. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. 399-бет.
6. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 239-240-бетлар.
7. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-жилд. 58-бет.
8. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. 338-бет.
9. Махдуми Аъзам Даҳбедий. Зубдат ус-соликин. Танбият ус-солатин. 44-бет.
10. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. 36-бет.
11. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т., 2002. 95-бет.
12. Ғозий И. Нақшбандия тариқатининг буюк сиймоси – Махдуми Аъзам // Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Т., 1994. 273-бет.
13. Абулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. – Т., 2001. 114-бет.
14. Шарафиддин Роқимий. Тарихи томм. – Т., 1998. 90-бет.

15. Муҳаммад Юсуф Мунши. Муқим-ханская история. – Т., 1956. – С.52.
16. Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-воқоеъ. – Т., 1979. 46-бет.
18. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т., 1997. 24-бет.
19. Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999. 230-бет.
20. Аҳмедов Б. Ватан тарихидан ҳикоялар. – Т., 1999. 95-бет.
21. Фируденбек. Мажмуаи муншооти салотин. Истанбул, 1847, ЎзФАШИ, инв. № 15179, варақ 346, 355.
22. Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан. – Т., 1968. 64-бет.
23. Муҳаммад Ҳайдар мирза. Тарихи Рашидий. 400-бет.
24. Очилов Э. Убайдай. Дийдор орзуси // Сўзбоши. – Т., “Шарқ”, 2007. 28-бет.